

## Sirdaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Sirdaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Sirdaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Sirdaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2026-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, viloyatda **1 220** ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ishlab chiqarish sanoatida taqsimlanganda yuqori ulush **294** tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining **25,1** %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, **187** tasi (**16,6** %) boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, **94** tasi (**7,7** %) kiyim ishlab chiqarishga, **81** tasi (**6,6** %) tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarishga, **72** tasi (**5,9** %) mebel mahsulotlari ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni  
1-aprel holatiga ko'ra





## II. Sirdaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan **7 191,4\*** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi **108,9** % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>7 191,4</b>	<b>108,9</b>
Guliston sh.	395,7	107,3
Shirin sh.	1 857,4	106,5
Yangiyer sh.	430,4	109,6
Boyovut tumani	2 001,2	116,8
Guliston tumani	151,6	108,4
Mirzaobod tumani	168,1	138,3
Oqoltin tumani	121,3	142,2
Sardoba tumani	148,5	108,2
Sayxunobod tumani	242,1	108,1
Sirdaryo tumani	1 065,8	113,4
Xovos tumani	111,3	112,3

\* viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda

### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Shirin shahrida (**95 697,7** ming so'm), Boyovut tumanida (**13 863,1**), Yangiyer shahrida (**8 553,8** ming so'm), Sirdaryo tumanida (**7 541,0** ming so'm), o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (**7 586,4** ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (**107,1** %) ni tashkil etgan bo'lsa, Oqoltin tumanida (**140,1** %), Mirzaobod tumanida (**135,6** %), Boyovut tumanida (**114,7** %), Sirdaryo tumanida (**111,9** %) qayd etilib, viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi  
yanvar-mart oylarida




**Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari**

2026-yilning yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqarish sanoati hissasiga to'g'ri kelib **3 638,3** mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (**50,6 %**) ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda **28,0** mlrd so'm (**0,4 %**), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoati **3 490,5** mlrd so'm (**48,5 %**) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda **34,6** mlrd so'm (**0,5 %**) ni tashkil etdi.


**Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi**

2026-yilning yanvar-mart oylarida


hajmi, mlrd so'm



fizik hajm indeksi, %



jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi





### III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda **61,3** ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **141,5** % ga ko'paygan), **8,9** ming tonna kepak mahsulotlari (**22,8** % ga ko'paygan), **255,1** ming litr 100 % spirt aroq mahsulotlari (**61,8** % ga ko'paygan) hamda **1,7** tonna dori vositalari (**5,5** % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-mart *	2025-yil yanvar-mart *	2026-yil yanvar-mart *
Tarkibida alkaloidlar bo'lgan yoki bo'lmagan, lekin gormonlar yoki antibiotiklar bo'lmagan medikamentlar, tonna	753,1	1 174,1	134,7
Boshqa plastmassalardan (etilen polimerlaridan tashqari) qoplar va sumkalar (jumladan konus shaklidagi), tonna	2 811,0	4 007,0	0,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	10,9	25,4	61,3
Don ekinlarini qayta ishlashdan hosil bo'lgan kepak, chiqit va boshqa chiqindilar, ming tonna	4,3	7,3	8,9
Boshqa o'simlikdan yog' olishda hosil bo'lgan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar, tonna	17,3	2 285,8	0,0

\* 2025-2026-yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**  
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

## Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 28,2 % (2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 89,5 %), to'qimachilik, kiyim-kechak, teri va unga tegishli kimyoviy mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 31,9 % (2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 127,1 %), rezina va plastmassa mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 4,7 % ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 5,1 % ni (2025-yilning yanvar-mart oylarida 5,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 2,7 % (2,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 29,4 % (30,1 %), quyi texnologiyali 62,8 % (61,5 %) ni tashkil etgan.

## Sirdaryo viloyatida yirik korxonalar tomonidan shisha hamda sement, beton yoki sun'iy toshdan buyumlar mahsulotlari ishlab chiqarish yanvar-mart oylarida


Ichimliklar va oziq-ovqat mahsulotlari uchun nominal sig'imi 2,5 litrdan kam bo'lgan rangsiz shishadan butilkalar ishlab chiqarish sanoatida 2026-yilning yanvar-mart oylarida 49,9 mln dona (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 95,3 % ga ko'paydi), 1 636,4 tonna beton yoki sun'iy toshdan buyumlar ishlab chiqarish (7,1 % ga ko'paydi) ishlab chiqarildi.

## Sirdaryo viloyatida yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ichimliklar va oziq-ovqat mahsulotlari uchun nominal sig'imi 2,5 litrdan kam bo'lgan rangsiz shishadan butilkalar hamda sement, beton yoki sun'iy toshdan buyumlar mahsulotlari ishlab chiqarish

Yanvar-mart oylarida



■ Ichimliklar va oziq-ovqat mahsulotlari uchun nominal sig'imi 2,5 litrdan kam bo'lgan rangsiz shishadan butilkalar ming dona



■ Sement, beton yoki sun'iy toshdan buyumlar mahsulotlari ishlab chiqarish tonna



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026-yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiyasini taqsimlash, uzatish hamda quvurlar orqali bug' va issiq suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 111,1 % ni, gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar esa 77,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-mart *	2025-yil yanvar-mart *	2026-yil yanvar-mart *
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln. kv.t.s	4 454,3	5 243,3	5 390,6
<i>shundan:</i>			
<i>yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)</i>	4 454,3	2 193,0	2 156,5
<i>kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan)</i>	0,0	3 050,3	3 234,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	37,5	38,7	45,0

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlashda 3,6 % ga kamayish, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish 46,5 % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-mart *	2025-yil yanvar-mart *	2026-yil yanvar-mart *
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar mlrd so'm	21,3	19,7	24,3
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar mlrd so'm	5,5	6,2	10,3

\*2025-2026-yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

## IV. Kichik biznes subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3 638,8** mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **50,6 %** ni tashkil etdi (2025-yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi **51,9 %** ni tashkil etgan).





## V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Sanoat bu** – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

### Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

**Sanoat ishlab chiqarishi hajmi** to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

### Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

**Fizik hajmi indeksini hisoblash** deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

**Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi** asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

**B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**C** - Ishlab chiqarish sanoati

**D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

### Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfqhehch5446456>



---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Sanoat va energetika  
statistikasi boshqarmasi

**Ijrochi:**  
Sh. Bakiyeva  
67 236-70-00 (2010)

**Манзил:**

